

## ONA ALLASI DUNYONI TEBRATAR

*Kurtbayeva Ogulsapdi**NDPI Boshlang'ch ta'lim fakulteti**2-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ona allasi orqali bu dunyoda chaqaloq orom oladi. Uning buyuk muhabbati insonni ulug'laydi va e'zozlaydi.

**Kalit so'zlar:** Ona allasi, mehr-muhabbat, xalq og'zaki ijodi, turkiy xalqlar, ajdodlar merosi.

Ona allasi bu tug'ilganimizdan qonimizga singan, qulog'imizga quyilgan umuminsoniy qoshiqdir.

Alla turli tillarda aytiladi, uning zamirida onaning farzandiga cheksiz mehru-muhabbati yotadi. Ona allasini eshitmay ulg'aygan insonning o'zi yo'q, shuning uchun ham shunday deyilgan: "Alla bola tug'ilgandan to beshikdan chiqquncha aytilgan" degan ulamolar. O'zi bu dunyoda alla aytmagan ona bormikan?! Ona allasi yigitga quvvat, qizga esa hayo va iffat baxsh etadi. Alla onalar, millat xotirasini asraydi. Har bir millatning allasi bor. Turkiy halqlar, xususan o'zbeklar ham qadim -qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami, ma'naviyati ham sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratadilar. Shu sababli ajdodlar bola ko'nglining sog'lom va to'za bo'lib shakillanishida beshikdaligida alla aytilganligi muhim o'rin tutushini bilganlar. Ota bobolarimizdan Abu Ali ibn Sino ham o'zining "Tib qonunlari" kitobida bola tarbiyasida allaning ahamyati tog'risida shunday degan: "Bolaning mijozini ko'paytirish uchun, unga ikki narsa qo'llamoq kerak ya'ni, biri bolani sekin -sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir". Bunda aytiladiki, shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi. Tog'ri, siz aytishingiz mumkin, endi tug'ilgan bola qanday qilib alladagi so'zlarning ma'nosini tushunadi? Bunga esa javob, onaning yuragidan chiqqan allasi orqali, shirin so'zlar orqali, ta'lim tarbiyasiga undab boriladi, yanada alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg'usini ko'ngil bilan his qiladi.

Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g'ururi, ayni vaqtda dardi, alami, orzu- armonlari ham o'z ifodasini topishi ajab emas. Ma'lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi va ardoqlaydi. Shu fursatda bir ertak esimga tushadi.

"Qurbaqaga aylanib qolgan shahzoda avaliga hech narsa eslay olmaydi. Malikaning allasini eshitgachgina, o'zining shahzodaligini, alla aytayotgan ko'zi ojiz onasi ekanini eslaydi. Ona va bola bir -birini alla orqali taniydi"

Bu bilan men allaning qanchalik qudratligini tushinib yetdim. Shuning uchun ham aytishdik-u “Ona bir qo'lida beshikni tebritsa, bir qo'lida dunyoni tebratar” deb bejizga aytilmagan. Bunda shuni ko‘rishimiz mumkin ona o‘z bolasi uchun dunyoni ostun- ustun qilishga qodir. Onaning mehrini aytgan allasi orqali ham bilsak , tushinsak bo‘ladi.

Alla aytib uxlataman,  
Alla, qo‘zim , alla.  
Qanday seni yupataman ,  
Alla, bolam, alla.

Bunday allalar bilan bolaning ruhiyatiga , qalbiga , iymonni va ezgu niyatlarni sola olsak ularning kelajakdagi kamoli shunchalik bo‘y ko‘rsatadi . Buning uchun ona allasi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bu dunyoda ona allasidek murg‘ak bolani hech narsa tinchlantira olmaydi. Shuni aytamanki har bir ona o'z farzandiga o'zi alla aytib berishi kerak . Alla bolani faqatgina uhlashiga emas nutqi, aqli rivojlanishiga ham yordam beradi .

Alla- beshik boshi, u xalq og‘ zaki ijodi namunalarida ham keng kuylanadigan musiqadir ya'ni, bolani bashikga solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani beshikdan olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi . Bunday ko‘ngilga orom beruvchi qo‘shiqlar bolaga xush yoqadi-ana shu she‘riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan, bu qo‘shiqni alla qo‘shiqlari deyiladi. Alla aytishni o‘rgatuvchi badihago‘y ayollar bo‘lgan. Bunday ayollarga enagalar ham desak mubolag‘a bo‘lmaydi .

Qo‘li arslon bilakligim, alla,  
Botir, qoplon yurakligim, alla.  
Yaxshi-yamon kunimda, alla.  
Menga juda kerakligim , alla.

Beshik qo'shiqlari onalarning orzu armonlari bilan birgalikda turli tarixiy voqealar , ijtimoiyi hayotga munosabat ham bayon etiladi. Onalar hech kimga aytolmagan yurak dardlarini bolasiga, alla orqali aytgan va bundan ma‘lum darajada yengil tortgan. Alla hozirgi davrning lirik kayfiyatdagi ruhiy ko‘zqusidir. Onaning yoqimli ohanglari ichida davr muhiti, insonlar tirikchiligi , insonlar orasidagi munosabatlar, ijtimoiy-maishiy hayot qaramaqarshiliklar , oddiy so‘zlarning badiiy va go‘zal ruhiy qudrati o‘z ifodasini topadi.

Ona- katta yorug‘lik , iliqlik va muhabbatni o'z ichiga oladigan katta so'z . U har bir kishiga eng qimmatli narsani hayotni beradi . Onani qancha ko‘p tariflasakda oz. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne‘mat -farzandi uchun Hudodan hamma yaxshi sifatlarni so‘raydi va uni allasida shakillantiradi .

Xulosa qilib aytganda ayol-ona, ayol- tarbiyachi, ayol-shifokor, ayol-murabbiy. Ana shu ezgu niyatlar , xislatlar birgina inson qiyofasida o‘z irodasini topgani tufayli

ayol mukammal insonni tarbiyalaydi. Uning hikmati, o'gitar va nasihatlarda olam-olam hayot haqiqati jilolanib turadi. Shunday ekan har birimiz onalarimizni ardoqlaylik va sevaylik!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [www.kh.davron.uz](http://www.kh.davron.uz).
2. Internet. hozirgi.org.
3. Gulmira Nuriddinova “Ona allasi” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007